Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохиروна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромов Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

QASHQADARYO VILOYATI HUDUDLARINING VERTIKAL O'SISH HOLATI VA XUSUSIYATLARI



Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna
Qarshi DU dotsenti



Raximova Madina Shuxrat qizi
QarMII tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada shaharlar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblangan uy-joylar qurilishi holati Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilingan. Tahlilda uy-joylar yakka tartibdagi va ko'p qavatliga ajratilib, hududlarning bo'yiga o'sish jarayonlari vertikal o'sish indeksi asosida baholangan. Natijalarga ko'ra, viloyatning o'nta hududida vertikal o'sish indeksi viloyat bo'yicha o'rtacha qiymatdan past bo'lib, bu holat ko'p kvartirali uy-joylar qurish bo'yicha hududlararo tengsizlikning yuqori ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: shaharlar kengayishi, aholi zichligi, uy-joy fondi, qurilish, ko'p qavatli uy, vertikal o'sish, infratuzilma xarajatlari.

Abstract: In the article, the state of housing construction, which is considered one of the main indicators of urban development, is analyzed on the example of Kashkadarya region. In the analysis, houses are divided into single-family and multi-story houses, and growth processes of regions are evaluated based on the vertical growth index. According to the results, the vertical growth index in ten regions of the region was lower than the average value for the region, which indicated a high interregional inequality in the construction of multi-apartment housing.

Key words: urban expansion, population density, housing stock, construction, high-rise building, vertical growth, infrastructure costs.

Аннотация: В статье на примере Кашкадарьинской области анализируется состояние жилищного строительства, которое считается одним из основных показателей развития города. В анализе дома делятся на многоквартирные и многоэтажные, а процессы роста регионов оцениваются на основе индекса вертикального роста. По итогам индекс вертикального роста в десяти регионах области оказался ниже среднего значения по региону, что свидетельствовало о высоком уровне неравенства в строительстве многоквартирного жилья. Ключевые слова: расширение городов, плотность населения, жилищный фонд, строительство, высотное строительство, вертикальный рост, затраты на инфраструктуру.

Ключевые слова: городская экспансия, плотность населения, жилой фонд, строительство, высотное строительство, вертикальный рост, затраты на инфраструктуру.

KIRISH

O'zbekiston – 2030 strategiyasida urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish; tuman (shahar)larning bosh va master rejalarini aholi hamda tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqish amaliyotini joriy etish; aholi zich bo'lgan hududlarda "bo'yiga o'stirish" tamoyili asosida ko'p qavatli uy-joylar barpo etish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.



Shaharlar kengayishi asosan aholi soni ortishining natijasida sodir bo'lib, u 3 xil ssenariy bo'yicha amalga oshadi. 1-holat shahar hududining yon-atrofga kengayishi natijasida aholi zichligining qisqarishini ifodalaydi. 2-holatda shahar hududi yon-atrofga kengayadi, biroq aholi zichligi o'zgarmaydi. 3-holatda shahar hududi yon-atrofga emas, bo'yiga o'sib, undagi aholi zichligi o'tadi. Mazkur ssenariy infratuzilmaga xarajatlarining minimaligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Shaharlar vertikal o'sishining qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, vertikal o'sish shaharlarga, ayniqsa, yer tanqisligi kuzatilayotgan yuqori urbanizatsiyalashgan hududlarda cheklangan yer resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Yuqoriga qarab qurilish orqali shaharlar mavjud yerlardan tashqariga chiqmagan holda maksimal darajada foydalanishlari mumkin, bu esa yashil maydonlarni va qishloq xo'jaligi yerlarini saqlab qolishga yordam beradi. Vertikal o'sish, shuningdek, shaharlarning qo'shni qishloq joylari hududi evaziga kengayishini kamaytirishga yordam beradi. U orqali shaharlar yaqin atrofdagi qishloq xo'jaligi yerlari yoki tabiatga zarar yetkazmagan holda o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

Ikkinchidan, vertikal ravishda qurish orqali shaharlarda transport va infratuzilma tizimlarini yaxshilashi, jamoat transporti tarmoqlarini qurish va tirbandlikni kamaytirish mumkin. Vertikal shaharlar, shuningdek, xarid qilish, ovqatlanish va ko'ngilochar xizmatlarning ommabopligi kabi qulayliklarni taklif qilish orqali odamlarni bir hududda yashash va ishlashga undashi mumkin.

Uchinchidan, vertikal shaharlar gorizonttal shaharlarga qaraganda ko'proq energiya tejash imkoniyatiga ega. Buning sababi shundaki, ko'p qavatli binolar pastki qavatlardagi issiqlikni ushlab turish va tabiiy shamolatish tizimlarini qo'llash orqali sovuq iqlim sharoitida issiqlik yo'qotilishini kamaytirishga yordam beradi. Bu shahar uchun energiyani sezilarli darajada tejashga va uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab tadqiqotchilar urbanizatsiya tarkibiy o'zgarishlar natijasida sodir bo'lishini ta'kidlaydilar. Jumladan, X. Yang taraqqiyot, tarkibiy o'zgarishlar va urbanizatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilar ekan, mehnat taqsimoti evolyutsiyasini urbanizatsiya, siyosat yoki institutsional tuzilmalar darajasidagi o'zgarishlar natijasida tranzaksiya samaradorligining oshishi bilan izohlaydi va bu orqali tarkibiy o'zgarishlarni tushuntiradi ^[9]. G. Michaels, F. Rauch, S. Reddinglar 1880-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi qishloq va shaharlarda aholi evolyutsiyasini tahlil qilishadi. Ular bu davrdagi aholi zichligi uchun dastlabki zichlik va keyingi o'sishi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlashadi. Ular nazariya va empirik dalillardan foydalanib, shaharlarda aholi o'sishining asosiy sababi qishloq xo'jaligining aholi zichligi bo'yicha ish bilan bandlikning dastlabki ulushidagi farqlar va bandlikni qishloq xo'jaligidan uzoqlashtiradigan tarkibiy o'zgarishlar natijasidir ^[6], degan xulosaga keladilar.

Ba'zi tadqiqotlarda esa urbanizatsiya tarkibiy o'zgarishlarsiz ham sodir bo'lishi mumkin, degan qarashlar ilgari suriladi. Xususan, R. Jedwabga ko'ra, Afrikada urbanizatsiyaning keskin ortishini tarkibiy o'zgarishlarning standart nazariyalari bilan izohlab bo'lmaydi. Chunki bu holat yashil inqilob yoki sanoat inqilobidan emas, balki tabiiy resurslar eksporti bilan bog'liq. U resurslarning kutilmagan daromadlari shahar tovarlari va xizmatlariga nomutanosib ravishda sarflanishini va "iste'mol shaharlari" paydo bo'lishiga olib kelishini Engel egri chizig'i vositasida tushuntiradi. Jedwab bu nazariyani bir asrni qamrab olgan yangi ma'lumotlar va ikkita identifikatsiya strategiyasidan (instrumental o'zgaruvchilar strategiyasi va sobit effektli yondashuv) foydalangan holda ham mamlakatlararo ham Fil Suyagi sohillari va Kanada bo'yicha mamlakat ichidagi ma'lumotlar vositasida tasvirlaydi. Tadqiqot natijasida qishloqdagi tabiiy resurs bo'lgan kakao ishlab chiqarishning shaharlarning o'sishiga kuchli ta'sir etgani aniqlanadi va uzoq muddatli o'sish uchun tarkibiy o'zgarishlarsiz urbanizatsiya oqibatlari tahlil qilinadi ^[5].

Jedwab ishtirok etgan yana bir tadqiqotda esa rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati standart sxemaga amal qilib, "urbanizatsiya qishloq xo'jaligi mahsuldorligining o'sishidan chekinish yoki sanoat mahsuldorligining o'sishiga tomon harakatning mahsulidir" ^[3], degan xulosaga kelinadi. Tadqiqot mualliflarining fikriga ko'ra, ushbu mamlakatlarda urbanizatsiya tarkibiy o'zgarishlar bilan sodir bo'ladi va shaharlar "ishlab chiqarish shaharlari"ga aylanadi.

TADQIQOT USLUBIYOTI

Tadqiqotda vertikal o'sish indeksidan foydalanilib, indeks vaqt oralig'ida shaharning kengayish intensivligini taqqoslaydi va dominant o'sish komponentida vaqt bo'yicha tendensiyalarni aniqlaydi¹. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

1 Zamboni I., Colantoni A., Salvati L. Horizontal vs vertical growth: Understanding latent patterns of urban expansion in large metropolitan regions //Science of the Total Environment. – 2019. – V. 654. – P. 778-785.





$$VHG = \frac{(B^{k+})_{t+1}}{(B^{k-1-})_{t+1}} - \frac{(B^{k+})_t}{(B^{k-1-})_t} \quad (1)$$

bunda $(B^{k+})_x$ va $(B^{k-1-})_x$ x – vaqt oralig'ida qurilgan k qavatdan ko'p va kam qavatli uylar sonini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2018-2022-yillarda hududlar bo'yicha uy-joy fondining umumiy maydoni 29,7 foizga ortdi. Ta'kidlash joizki, o'sishning bu qiymati o'tgan besh yillikdagidan (2013-2017-yillar) 2,2 barobar ortiq bo'ldi.



1-rasm: Uy-joy fondi maydonining o'zgarish dinamikasi²

Qashqadaryo viloyatida uy-joy fondining umumiy maydoni 2022-yilda 57336,1 ming kv.m.ni tashkil etib, 2017-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,8 foizga ortgan. Yuqori o'sish sur'atlari Nishon (27,3 foiz), Yakkabog' (21,5 foiz), G'uzor (19,5 foiz) va Kitob (16,9 foiz) tumanlarida kuzatilgan.

Uy-joy fondi maydonining asosiy ulushi Qarshi (9,4 foizi), Kitob (8,2 foizi), Yakkabog' (8,1 foizi), G'uzor tumanlari (7,9 foizi) va Qarshi shahriga (8,3 foizi) to'g'ri kelib, bu hududlar viloyat bo'yicha uy joy fondining 41,9 foiziga egalik qiladi. Muborak (2,7 foiz) va Mirishkor (2,9 foiz) tumanlari bu reytingda oxirgi o'rinlardan joy oladi.

1-jadval: Qashqadaryo viloyati hududlarida uy-joy fondi maydonining o'zgarish dinamikasi, foiz³

Hududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Qashqadaryo viloyati	5,5%	3,4%	0,5%	1,1%	2,8%
Qarshi sh.	3,7%	6,5%	0,8%	1,7%	0,6%
Shahrisabz sh.	-	1,6%	7,1%	0,8%	2,2%
G'uzor	12,0%	3,9%	0,2%	1,0%	1,5%
Dehqonobod	0,0%	0,3%	1,4%	2,0%	2,2%
Qamashi	3,6%	0,8%	-1,0%	0,6%	1,3%
Qarshi	3,6%	0,7%	-1,4%	0,1%	3,7%
Koson	10,5%	0,4%	0,3%	0,5%	0,8%
Kitob	9,4%	0,6%	3,6%	1,4%	1,1%
Mirishkor	3,2%	0,0%	-1,4%	2,9%	0,3%
Muborak	6,8%	0,5%	-5,8%	1,8%	0,4%
Nishon	2,0%	24,9%	-0,5%	0,2%	0,2%
Kasbi	1,5%	0,3%	1,5%	1,9%	0,3%
Ko'kdala	-	-	-	-	-

² Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

³ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Chiroqchi	2,2%	4,1%	0,4%	1,0%	-41,3%
Shahrisabz	-35,8%	1,1%	0,3%	1,2%	1,0%
Yakkabog'	13,1%	6,7%	-0,4%	0,5%	0,6%

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyat hududlarida turar joylar qurish va foydalanishga topshirish 2018-2019-yillarda jadal sur'atlarda kechgan. Viloyatda uy-joy fondi maydoni o'tgan yilga nisbatan 2018-yilda 5,5 foizga, 2019-yilda 3,4 foizga ortgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2018-yilda Yakkabog' tumanida 13,1 foiz, G'uzor tumanida 12,0 foiz, Koson tumanida 10,5 foiz, Kitob tumanida 9,4 foizga ortgan bo'lsa, 2019-yilda Nishon tumanida 24,9 foiz, Yakkabog' tumanida 6,7 foiz va Qarshi shahrida 6,5 foizga ortgan.


2-jadval: Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan qurilishi (rekonstruksiya) tugallangan uy-joylar tog'risida ma'lumot, kv.m.⁴

T/r	Hudud nomi	Yakka tartibdagi		Ko'p kvartirali		Jami	
		2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
	Qashqadaryo viloyati	517 403	103 068	123 682	161 402	641 086	264 470
1	Qarshi sh.	14 571	8 037	76 878	62 272	91 449	70 308
2	Shahrisabz sh.	17 058	6 736	8 584	7 184	25 641	13 920
3	G'uzor t.	64 897	5 068	1 777	6 194	66 674	11 261
4	Dehqonobod t.	849	224	0	3 057	849	3 281
5	Qamashi t.	22 367	5 978	0	14 964	22 367	20 943
6	Qarshi t.	35 052	10 967	12 728	7 673	47 780	18 640
7	Koson t.	7 952	4 785	2 900	4 530	10 852	9 315
8	Kitob t.	9 350	5 292	1 770	1 607	11 120	6 898
9	Ko'kdala t.	15 785	3 801	0	6 251	15 785	10 052
10	Muborak t.	20 774	10 014	0	8 522	20 774	18 536
11	Nishon t.	22 735	14 775	1 755	4 825	24 491	19 600
12	Kasbi t.	7 929	1 518	0	4 570	7 929	6 089
13	Chiroqchi t.	14 976	4 020	4 406	1 660	19 382	5 680
14	Shahrisabz t.	14 488	4 560	3 986	10 679	18 474	15 238
15	Yakkabog' t.	19 693	9 376	7 147	10 851	26 840	20 227
16	Mirishkor t.	228 926	7 919	1 752	6 563	230 678	14 482

Qashqadaryo viloyatida 2021-2022-yillarda foydalanishga qabul qilingan uy-joylar maydoni jami 905 555,6 kv.m.ni tashkil etib, shundan 68,5 foizi Yakka tartibdagi uy-joylar bo'ldi. Eng ko'p uy-joylar Mirishkor (245 159,6 kv.m.) va G'uzor (77 935,2 kv.m.) tumanlari hamda Qarshi shahrida (161 757,8 kv.m.) foydalanishga topshirildi. Bu uch hududning jami viloyat bo'yicha ko'rsatkichdagi o'rni 53,5 foizni tashkil etdi. Dehqonobod (4 129,4 kv.m.), Kasbi (14 017,8 kv.m.) va Kitob (18 018,6 kv.m.) tumanlari uy-joylarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha viloyat hududlari orasida so'nggi o'rinlardan joy oldi.

Tahlil davrida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo'yicha Mirishkor, G'uzor va Qarshi tumanlari yetakchi bo'ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan yakka tartibdagi uy-joylar maydonining 56,9 foizi bu uch hudud hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod, Kasbi va Koson tumanlari bu yo'nalishda viloyat hududlari orasida so'nggi o'rinlardan joy olishdi.


4 Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2-rasm: 2021-2022-yillarda Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan uy-joylar⁵

Ko'p kvartirali uy-joylar qurish bo'yicha Qarshi shahri yaqqol yetakchi bo'lib, 2021-2022-yillarda shaharda jami 139 150 kv.m. Bu turdagi uy-joylar foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Qarshi va Yakkabog' tumanlari Qarshi shahridan keyingi yetakchilar bo'ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan ko'p kvartirali uy-joylar maydonining 62,3 foizi bu uch hudud hissasiga to'g'ri keldi.

Jami foydalanishga topshirilgan uy-joylar maydonida ko'p kvartirali uylarning ulushi Mirishkor tumanida 3,4 foiz, G'uzor tumanida 10,2 foiz, Nishon tumanida 14,9 foiz va Kitob tumanida 18,7 foizni tashkil etgan. Faqat Qarshi shahri (86,0 foiz) va Dehqonobod tumanida (74,0 foiz) mazkur ulush 50 foizdan yuqori bo'lgan. Shuningdek, viloyatning 7 ta hududida (G'uzor, Kitob, Ko'kdala, Muborak, Nishon, Chiroqchi va Mirishkor tumanlari) foydalanishga topshirilgan ko'p kvartirali uy-joylar maydonining ulushi 30 foizga ham yetmaydi. Bu holat viloyatda yakka tartibdagi uy-joylarning talabgirlikini ko'rsatib, vertikal o'sishning sust kechayotganidan dalolat beradi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda ko'p kvartirali uy-joylar qurilishini vertikal o'sish ifodasi sifatida qabul qilindi.



3-rasm: 2021-2022-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarining vertikal o'sish indeksi⁶

⁵ Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁶ Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Tahlillardan ko'rish mumkinki, o'nta hududda vertikal o'sish indeksi viloyat bo'yicha o'rtachadan past bo'lib, bu holat ko'p kvartirali uy-joylar qurish bo'yicha hududlararo tengsizlikning yuqoriligini ko'rsatadi. Dehqonobod, Kasbi, Qamashi, Shahrisabz, Ko'kdala tumanlari va Qarshi shahrida vertikal o'sish viloyat ko'rsatkichidan yuqori qiymatlarni tashkil etadi.

Qarshi, Nishon, Chiroqchi va Kitob tumanlari vertikal o'sish darajasi bo'yicha viloyat hududlari orasida so'nggi o'rinlardan joy oladi. Chunonchi, 2021-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joylarning Qarshi tumanida 26,6 foizi, Nishon tumanida 7,2 foizi, Chiroqchi tumanida 22,7 foizi va Kitob tumanida 15,9 foizi, 2022-yilda mos ravishda 41,2 foizi, 21,6 foizi, 29,2 foizi, 23,3 foizi ko'p kvartirali uy-joylardan iborat bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hududlar, xususan, shaharlarning vertikal o'sishi o'zining qator afzalliklariga ega bo'lib, aholiga qulay sharoitlar yaratishga yordam berish va yerdan foydalanishni optimallashtirish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Biroq vertikal o'sishning o'ziga xos jihatlari va salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, jumladan, uy-joylar qurilishining ortishi oqibatida shahar yashil hududlarining kamayishi, mavjud infratuzilmaga yuklamaning ortishi kabi holatlar bunga misol bo'la oladi. Shularni inobatga olgan holda Qashqadaryo viloyati hududlari uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Viloyatning Qarshi, Nishon, Chiroqchi va Kitob tumanlari bosh rejalarini "bo'yiga o'stirish" tamoyili asosida yangilash.

O'zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan "bo'yiga o'stirish" tamoyili asosida ko'p qavatli uy-joylar barpo etish vazifasi natijadorligini baholash va aholi fikrini muntazam o'rganib borish maqsadida ijtimoiy har olti oyda o'tkaziluvchi ijtimoiy so'rovlarni yo'lga qo'yish. So'rovlarni o'tkazishda Dehqonobod tumani va Qarshi shahrini pilot hududlar sifatida tanlab olish.

Uy-joy qurilishida turar joy atrofidagi hudud va umumiy shahar bo'yicha har bir aholiga to'g'ri keluvchi "yashil hudud" maydonining minimal normalariga qat'iy amal qilinishi bo'yicha jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish.

Manba va adabiyotlar:

1. Michaels G., Rauch F., Redding S. J. Urbanization and structural transformation //The Quarterly Journal of Economics. – 2012. –127(2). – P. 535-586.
2. Shukhratovich M. S. Managing changes in the structure of employment in the regions of Uzbekistan //South Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. –11(2). – P. 52-62.
3. Sivayev D. et al. The Time is Now. – 2022. P. 26.
4. Jedwab R. Urbanization without structural transformation: Evidence from consumption cities in Africa // George Washington University.
5. Rahimova M. Sh. Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish orqali urbanizatsiya darajasini oshirish //Iqtisodiy tahlil va prognozlar jurnal. – 2023. P. 22(2).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.